

To'maris



To'maris

(mil. avv. VI asr)

Turon xalqlarining **ahamoniylar** bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur sarkarda. Qadimgi yunon tarixchisi **Gerodot**ning *“Tarix”* (mil. avv. V asr) asarida yozilishicha, *Ahamoniylar davlati* asoschisi *Kir II* mil. avv. 530 yilda Turonga bostirib kirganida, To'maris massagetlar qabilasining malikasi bo'lgan. Massagetlar bu paytda Amudaryo (Araks) bo'ylari va Qizilqumda yashashgan. To'maris massagetlar podshosining xotini bo'lib, u erining vafotidan so'ng davlatni boshqargan. Erondan kelgan bosqinchilar qo'shini bilan massagetlar o'rtasida shiddatli janglar bo'lgan. Dastlabki jangda To'marisning o'g'li *Sparangiz* (*Sparganis*) boshchiligidagi massagetlar g'olib chiqqan. Biroq keyingi jangda forslar hiyla yo'li bilan Sparangiz va ayrim massagetlarni asir olishganda, or-nomusga chiday olmagan Sparangiz o'zini o'ldirgan. To'maris o'g'lining halokatidan esankirab qolmay, o'z xalqining manfaatini o'ylab, *Kir II* dan massagetlar yurtidan chiqib ketishini so'raydi. Biroq forslar shohi rad javobini bergach, ikki o'rtada ayovsiz jang bo'lgan. Gerodot massagetlar va forslar o'rtasidagi jang tafsilotlarini o'z asarida quyidagicha tasvirlaydi: *“Mening bilishimcha, bu jang varvarlar o'rtasidagi barcha janglardan ham dahshatli bo'lgan. Avval har ikkala qo'shin bir-birini uzoq masofadan turib, kamondan o'qqa tutdilar. Kamon o'qlari tugagach, ular nayza va qilich bilan kurashdilar. Jang uzoq vaqt davom etdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlar g'alaba qozondilar. Fors qo'shinlarining asosiy qismi, jumladan, Kir II ham jang maydonida halok bo'lgan. U to'liq 29 yil shohlik qilgan edi. Kir II ning jasi topilgach, malika (To'maris)ning buyrug'i bilan uning kesilgan boshi inson qoni bilan to'lg'azilgan meshga solingan”*.

2023-10-28 20:16:15